



**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

O'ZBEKISTONDA SIYOSATSHUNOSLIK FANINI O'QITISHNING NAZARIY VA AMALIY YO'NALISHLARI

**MODULI BO'YICHA
O'QUV- USLUBIY
MAJMUUA**

2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIIY TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“O‘zbekistonda siyosatshunoslik fanini o‘qitishning nazariy
va amaliy yo‘nalishlari”**

moduli bo‘yicha
O‘QUV-U SLUBIY MAJMUUA

Toshkent – 2024

Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: s.f.f.d, (PhD) dotsent H.Rajabov f.f.d. (DSc), O’.Tilavov, s.f.d., prof. Sh.Paxrutdinov, katta o‘qituvchi U.Maxramov.

Taqrizchi: f.f.d., prof. N.X.Xakimov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, f.f.d., prof. G.Ro‘zimatova – O‘zbekiston milliy universiteti.

*O‘quv uslubiy majmua Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024-yil 20- yanvardagi № 4/2-sonli bayonnomasi)*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.	16
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	21
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	52
V. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.....	60
VI. GLOSSARIY.....	61
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	62

I.ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, O‘zbekistonda siyosatshunoslik fanini o‘qitishning nazariy va amaliy yo‘nalishlari, xalqaro siyosiy munosabatlar va tashqi siyosatning zamonaviy tendensiyalari bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

1.1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari.

1.2. Oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari.

1.3. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar.

1.4. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.

1.5. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

1.6. Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari.

1.7. O‘zbekistonda siyosatshunoslik fanini o‘qitishning nazariy va amaliy yo‘nalishlari.

1.8. Xalqaro siyosiy munosabatlar va tashqi siyosatning zamonaviy tendensiyalari.

Malakaviy attestatsiya

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta’lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“**Siyosatshunoslik**” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarning o‘zlashtirilishini ta’minlash;

- o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta’minlash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish;

“**Siyosatshunoslik**” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda

kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- 2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining davlat va jamiyat hayotini takomillashtirishdagi o‘rni va ahamiyatini;

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini;

- Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;

- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;

- Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura

mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarni, o'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;

- ta'lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
- raqamli ta'lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
- jahonda oliy ta'lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik

yo'nalishlarni;

- zamonaviy ta'limning global trendlarini;
- inson kapitalining iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida

ta'limning yoshdagi ahamiyatini;

- oliy ta'limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;

- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko'pqirrali va samarali faoliyat

yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;

- universitetlarning zamonaviy modellarini;
- zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
- tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo'nalishlarini;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
- innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini

rivojlantirish yo'llarini;

- kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
- kasbiy kompetensiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini;
- pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
- pedagogik texnikani shakllantirish yo'llarini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion,

akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini;

• kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;

• kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to'siqlarni yechishda, to'g'ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;

- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;

- ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni;

• kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;

- baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini
- o'qitishning an'anaviy va zamonaviy metodlarini;
- zamonaviy o'qitish metodlari klassifikatsiyasini;
- mashg'ulotni tashkil etishda pedagogik maqsadlar taksonomiyasini;
- ta'lim va kognitiv faoliyat samaradorligini kuzatish usullarini;
- siyosatshunoslikni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari turlarini;
- ta'lim oluvchilarning bilish faolligini oshirish va mustaqil ta'limini tashkil etish asosidagi innovatsion ta'lim shakllarini;
- ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion vositalarni;
- xalqaro siyosiy munosabatlar va tashqi siyosatning zamonaviy tendensiyalarini;
- tashqi siyosiy jarayonlar tahlilining asosiy yo'nalishlari, uslub va tamoyillarini;
- nazariy va amaliy siyosiy tahlillar jarayonida ma'lumotlarni yig'ish va ishlab chiqishni asosiy usullarini bilishi kerak.

Tinglovchi:

- 2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalish va maqsadlarini tahlil etish va baholash;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofiviy ta'lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta'lim resurslari sifatini baholash;
- OTMlarni reyting bo'yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o'tish uchun zarur bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o'tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o'zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potentsiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo'llash;
- o'qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyatini yoritib berish;
- tinglovchilar diqqatini o'ziga tortish usullaridan foydalanish;

- kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
- talabalarning o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ni nazorat qilish;
- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish
- siyosiy ta’limda o‘quv va kognitiv faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish metodlaridan foydalanish;
- ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion metodlarni tanlash;
- tashqi siyosiy jarayonlar tahlilining asosiy yo‘nalishlari, uslub va tamoyillarini qo‘llash;
- nazariy va amaliy siyosiy tahlillar jarayonida ma’lumotlarni yig‘ish va ishlab chiqishni asosiy usullarini amaliyotga joriy etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasining mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o‘quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- an’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
- onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o‘zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o‘rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollari tahlil etish;
- innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;

- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
- o'quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
- tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganish, tanishish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
- ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o'qituvchilarning salohiyati va o'quv-metodik ta'minot)ni tahlil etish va baholash;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- induktiv va deduktiv metodlarni qo'llash;
- ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion vositalardan foydalanish;
- xalqaro siyosiy munosabatlar va tashqi siyosatning zamonaviy tendensiyalarini tahlil etish va baholash;
- tahlil natijalari, shuningdek, hulosasi va tavsiyalarni to'g'ri aniqlash *malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslarini mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlari asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta'minlash;
- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o'quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o'zlashtirish;
- raqamli ta'lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish;
- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo'llarini tahlil etish va amaliyotga tatbiq etish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo'llash;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollari yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tatbiq etish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;

- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlarning xilma-xilligi va o‘ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- talabalarning ta’limiy (o‘quv predmetlari), tarbiyaviy (ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- ta’lim va kognitiv faoliyat samaradorligini kuzatish usullarini qo‘llash;
- Siyosatshunoslikni o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari turlaridan foydalanish;
- o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida tashqi siyosiy vaziyatlar tahlilini to‘g‘ri amalga oshirish;
- amaliy geosiyosiy tekshirishlar natijalarini tahlilga asoslangan turli ko‘rinishda masalalarni ko‘rsatish kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“O‘zbekistonda siyosatshunoslik fanini o‘qitishning nazariy va amaliy yo‘nalishlari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari”, “Oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari”, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” “Ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalari”, “Xalqaro siyosiy munosabatlar va tashqi siyosatning zamonaviy tendensiyalari” mutaxassislik o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida genom tadqiq etishga, katta ma’lumotlar va nukleotid va oqsil ketma-ketliklar ma’lumotlar bazasi tizimlaridan foydalanish va amalda qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'uloti
1.	O'qitishning an'anaviy va zamonaviy metodlari	4	2	2	
2.	Siyosiy ta'limda o'quv va kognitiv faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish metodlari.	10	2	2	6
3.	Siyosatshunoslikni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari turlari.	4	2	2	
4.	Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metodlar.	10	2	2	6
	Jami:	28	8	8	12

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: O'qitishning an'anaviy va zamonaviy metodlari.

O'qitishning an'anaviy va zamonaviy metodlari. Zamonaviy o'qitish metodlari klassifikatsiyasi. Mashg'ulotni tashkil etishda pedagogik maqsadlar taksonomiyasi.

2-mavzu: Siyosiy ta'limda o'quv va kognitiv faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish metodlari.

Siyosiy ta'limda o'quv va kognitiv faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish metodlari: og'zaki, vizual, amaliy, mahsuldor, tushuntiruvchi va tasviri, qidiruv, izlanish, muammoli va boshqalar. Induktiv va deduktiv metodlar. Ta'lim va kognitiv faoliyat samaradorligini kuzatish usullari: bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish samaradorligini og'zaki, yozma tekshirish va o'z-o'zini tekshirish.

3-mavzu: Siyosatshunoslikni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari turlari.

Siyosatshunoslikni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari turlari. Ta'lim oluvchilarning bilish faolligini oshirish va mustaqil ta'limni tashkil etish asosidagi innovatsion ta'lim shakllari: amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol darslar, modulli-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish), mahorat darslari.

4-mavzu: Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metodlar.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metodlar: interfaol metodlar, "Case-study" (Keys-stadi) va "Assesment" metodi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion vositalar (kompyuter, proektor, elektron doska, Internet va vebinar texnologiyalar).

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
6. Ўзбекистон Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Oliy ta’limning meyoriy - huquqiy xujjatlari to‘plami. -T., 2013.

2. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020.

3. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.

4. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.

5. Virtualnaya realnost kak novaya issledovatel'skaya i obrazovatel'naya sreda. Serfuz D.n. i dr. // JURNAL Nauchno-analiticheskiy jurnal «Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta Gosudarstvennoy protivopojarnoy sluzhbi MCHS Rossii», 2015. – s.185-197.

6. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. Metodik qo‘llanma. – T.: “Lesson press”, 2020. -112 b.

7. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf

8. Kiryakova A.V, Olxovaya T.A., Mixaylova N.V., Zaporozko V.V. Internet-texnologii na baze LMS Moodle v kompetentnostno-oriyentirovannom obrazovanii: uchebno-metodicheskoye posobiye / A.V. Kiryakova, T.A. Olxovaya, N.V. Mixaylova, V.V. Zaporozko; Orenburgskiy gos. un-t. – Orenburg: OGU, 2011. – 116 s. http://www.osu.ru/docs/fpkp/kiryakova_internet_technologies.pdf

9. Kononyuk A.YE. Oblachniye vichisleniya. – Kiyev, 2018. – 621 s.

10. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf

11. Emelyanova O. A. Ta’limda bulutli texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. - 2014. - № 3. - S. 907-909.

12. Moodle LMS tizimida masofaviy kurslar yaratish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2017.

13. Tendensi i razvitiya visshego obrazovaniya v mire i v Rosii. Analiticheskiy doklad-daydjest. - M., 2021.- 198 s.

14. A.S. Zikriyoyev. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o‘zingizni kashf qiling. -T.: Navro‘z,2020. ISBN.9789943659285
15. Sherzod Mustafakulov, Aziz Zikriyoev, Dilnoza Allanazarova, Tokhir Khasanov, Sokhibmalik Khomidov. Explore Yourself Among World – Class Researchers. Grand OLEditor, Tashkent 2019, ISBN: 8175 25766-0.
16. Ackoff, Russell L., Scientific Method, New York: John Wiley & Sons, 1962.
17. Barzun, Jacques & Graff. F. (1990). The Modern Researcher, Harcourt, Brace Publication: New York.
18. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
19. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
20. Pecherkina, A. A. Razvitiye professionalnoy kompetentnosti pedagoga: teoriya i praktika [Tekst] : monografiya / A. A. Pecherkina, E. E. Simanyuk, YE. L. Umnikova : Ural. gos. ped. un-t. – Yekaterinburg : [b.i.], 2011. – 233 s.
21. O.S. Frolova. Formirovaniye innovatsionnoy kompetensii pedagoga v protsesse vnutrishkolnogo povisheniya kvalifikatsii. Diss.k.p.n. Voronej 2018.
22. Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronniy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.
23. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
24. Ishmuhamedov R, Mirsoliyeva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019.- 68 b.
25. Kodjaspirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablitsax i opornix konspektax./ -M.:Ayriss-press, 2016.
26. Natanzon E. Sh. Priyemi pedagogicheskogo vozdeystviya. - M, 2012. - 202 s.
27. Sergeyev I.S. Osnovi pedagogicheskoy deyatel'nosti: Uchebnoye posobiye. – SPb.: Piter, 2014.

IV. Elektron ta’lim resurslari

1. www.edu.uz.
2. www.aci.uz.
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.lib.bimm.uz
5. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
6. www.sciencedirect.com
7. www.acs.org
8. www.nature.com
9. <http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

“KWHL” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Izoh. KWHL:

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o‘rganib oldim?

“KWHL” metodi	
1. Nimalarni bilaman: -	2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak: -
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	4. Nimalarni bilib oldim: -

“W1H” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to‘ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• xavflar

2.1-rasm.

“VEER” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

2.2-rasm.

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-

hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish


“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



2.3-rasm.

“Insert” metodi

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“V” – tanish ma’lumot.	
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.	
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1. Mavzu: O‘qitishning ananaviy va zamonaviy metodlari

Ananaviy ta’lim texnologiyasi – muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, o‘qitishning ananaviy shakli, metodi va talim vositalarining majmuidan foydalangan holda ta’lim-tarbiya maqsadiga erishishdir.

Ta’limga ananaviy yondashuv. Uning asosiy xususiyati, o‘qituvchi ma’lum axbarotni gapirib beradi, tushuntiradi, talaba esa bu bilimni xotirasida saqlaydi.

Bilim tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma’nosida tushuniladi. Talabada bilim bor-yo‘qligi imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bunda bilim degani, asosan, esda qoldirishning natijasidir, u ko‘pincha yuzaki bo‘lishi ham mumkin. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi. Talaba savol berilganda eslashi, ba’zan eslay olmasligi ham mumkin.

Ananaviy o‘qitish usulida ta’lim maqsadi dastur talabiga binoan aniq ifodalanmaydi, talabaning o‘zlashtirish darajasi, sifati haqida muallim aniq tasavvurga ega bo‘lmaydi.

Ananaviy ta’lim mamlakatimiz o‘quv yurtlarida keng tarqalgan, uning turli jihatlari pedagogika, metodika fanlarida ishlab chiqilgan, katta tajriba to‘plangan. Ananaviy ta’lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etayotir, lekin uning obe‘ktiv imkoniyatlari cheklangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar, tez suratlar bilan rivojlanayotgan fan-texnika talablari – ta’lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, barkamol avlodni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoji o‘rtasida nomunosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta’limda boshqa yangi yondashuvlarni qo‘llash yo‘li bilan hal etish lozim.

Ta’limni boshqarishning asosiy tashkiliy shaklida quyidagi ma’lum belgilarga ega bo‘lgan mashg‘ulotlar guruhiiy yo‘sinda o‘tkaziladi:

- mashg‘ulotlarning har yili va har bir o‘qish kuni bir paytda boshlanishi;
- mashg‘ulotlar va ular orasidagi tanafuslarning ma’lum vaqt davom etishi;
- guruhlardagi bolalarning yoshi va soni jihatdan baravarligi;
- material o‘rganish sura‘tining bir xilligi;
- o‘quv mashg‘ulotlarining ma’lum tashkiliy shaklda o‘tkazilishi.

Guruhli mashg‘ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va hozir ham ancha takomillashgan holda mavjuddir.

Maktab rivojlanishi tarixida 20-yillarda ta’limning yakka tartibdagi shakli notanqidiy yo‘sinda qabul qilindi va amaliyotga ta’limning brigada - laboratoriya

metodi bilan kiritildi. Unda bir guruh (5-6 nafar) talabalar o'qituvchi tavsiya etgan materialni mustaqil holda o'rgananganlar. O'qituvchi maxsus tushuntirishlar bermay, faqat yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan. Hamma narsa uchun brigadir javob bergan. Bunday ta'lim bolalarning o'quv faoliyati uchun ma'suliyatini pasaytirgan.

Maktab barham topishining noto'g'ri pedagogik konsepsiyalari davrida ta'limning loyihalar metodi deb atalgan shakli vujudga kelgan. Unda talabalar o'qituvchining topshirig'i bo'yicha qandaydir obe'ktning loyihasini tayyorlaganlar. Mazkur g'oyalar mualliflarning aytishicha, talabalar loyihani tuzishda o'quv rejasi bo'yicha o'tiladigan predmetlarga doir kompleks bilimlarni o'zlashtirgan.

So'nggi yigirma yil maboynida pedagogika nazariyasi kombinasiyalangan darsni o'rganishdan darsni elementlar bo'yicha bosqichma-bosqich o'zlashtirishga, undan sintetik va nihoyat muammoli o'rganishga o'tdi. Tadqiqotlarning uzviyligi va uzviy yondashishi to'g'risida juda ko'p ilmiy adabiyotlar mavjud. Masalan, N.M.Maxmutov, G.D.Krilova, F.F.Korolev va E.G.Yudinlarning hozirgi zamon darsi, uni tashkil etish, kamol toptiruvchi ta'lim sharoitidagi dars nazariyasi va amaliyoti, muammoli dars va hakovzolariga doir kitoblarida darsga sistema sifatida qaralsagina uni chuqur tushunish mumkinligi qayd qilingan. Lekin pedagoglar 70- yillardagina darsni o'rganish va tushuntirishga sistemali yondashish zarurligini to'la angladilar.

Fanlar rivojlanishining hozirgi bosqichida darsni qanday tushunish kerak? Dars nazariyasida hozirgacha bu tushunchaning yangi ta'riflari yo'q. Ko'p ta'riflarda xuddi ilgariidek, dars ma'lum vaqt maboynida tarkibi o'zgarmaydigan o'qituvchilar va talabalar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish uchun muntazam qo'llanishi ifodalangan. Darsda o'quv-tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning didaktik elementlari mujassamlangan, deb hisoblash qabul qilingan.

Tabiiyki, dars yaxlit ta'lim jarayonini o'quv-tarbiya ishining boshqa tashkiliy shakllari – uy vazifalarini bajarish, predmet to'garaklarining mashg'ulotlari, sayrlar va hakovzolar bilan uzviy birlikda aks ettiradi. Darsni ikki jihatdan: umuman ta'lim jarayoni va ta'limni tashkil etish shakli sifatida tariflab uni foydali deb hisoblash taklifi bor (M.I.Maxmutov). Ta'limning umumiy jarayoni sifatida qaralsa, dars o'qitish harakatining ta'lim mazmuni, prinsiplari va metodlari bilan belgilangan, ma'lum makon-zamon chegaralarida o'qituvchi rejalashtiradigan hamda boshqaradigan birgalikdagi obe'kt – o'qituvchi va talabalar amalga oshiradigan asosiy shaklidir.

Mazkur tushuncha ikkinchi nuqtai nazardan quyidagicha tariflanadi: dars ma'lum tarkibdagi o'qituvchilar (muallimlar) bilan talabalarning maqsadga muvofiq o'zaro ta'siri (faoliyatlari va aloqalari) jarayonini tashkil etishning, ta'lim mazmuni, shakllari, metodlari, vositalarini o'z ichiga oladi, ta'lim jarayonida o'qitish kamol

toptirish va tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun (bir xil vaqt ichida) muntazam qo'llaniladigan boy va o'zgaruvchan shaklidir (qarang: M.I. Maxmutov. Современный урок.).

Ananaviy ta'lim texnologiyasining **afzalliklari**: ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydaliligi; o'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi; vaqtdan unumli foydalanish; aniq ilmiy bilimlarga tayanish

Kamchiliklari: talabalar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar; o'qituvchining to'la nazorati barcha talabalar uchun motivasiyani vujudga keltirmaydi; talabalar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi; eslab qolish darajasi hamma talabalarda bir xil bo'lmaganligi sababli, guruh bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin; mustaqil o'rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi².

Noananaviy ta'lim texnologiyasi – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida talaba shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirilgandir.

Noananaviy ta'lim texnologiyasi ananaviy ta'lim texnologiyasidan farq qilib, talabalarning bilish imkoniyatlarini rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, mustaqil

ishlashlariga alohida e'tibor beriladi, bilish faoliyatlari izlanuvchan va ijodiy xarakterga ega bo'ladi. Dars tuzilmasi o'zgaruvchan bo'ladi.

Noananaviy ta'lim texnologiyasini o'z navbatida uch qismga bo'lish mumkin:

hamkorlikda o'rganish, modellashtirish, tadqiqot (Loyiha)

Hamkorlikda o'rganish – talabalarning bilimini o'zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo'yicha reproduktiv (Esda saqlab qolish) faoliyatini ta'minlovchi, talabalarning kichik guruhlarda yoki juftliklarda ishlashi evaziga ta'lim olishidir. Mazkur texnologiyadan foydalanishda kitob bilan ishlash, o'quv suhbat, davra suhbat, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara kabi metodlarni qo'llash mumkin.

Modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini auditoriya xonasida yaratish hamda ularda talabalarning shaxsan qatnashishi, o'z faoliyati evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadi. Uning asosiy maqsadi talabalarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarini o'zlashtirishda bevosita ishtirokini taminlash orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu ta'lim texnologiyasiga ishbop o'yinlar va rolly o'yinlar kabi metodlarni kiritish mumkin.

Tadqiqot – talabalar tomonidan muammoni tushunish va yechish, mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan va shunga undaydigan usullar yig'indisidan iboratdir. Tadqiqotning maqsadi, dars jarayonida talabalar tomonidan savol qo'yish va ularga javob izlashga qiziqishini uyg'otishga qaratilgandir. Bu texnologiya bilan o'qitish

talabalarni amaliy izlanish jarayonida bevosita qatnashishini taminlaydi. Bularga muammoli vaziyat, loyiha metodi, mustaqil izlanish, yo'naltiruvchi matn kabi metodlar kiradi.

O'qitishning zamonaviy metodlari.

Bugungi kunda globallashtirishni ilm-fan tamoyillariga muvofiqlik asosida tashkil etish bu kabi muammolarni bartaraf etishning asosiy omillari sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Ta'limning noyob imkoniyatlari hozir nafaqat inson aqlini yangi tezkor imkoniyatlar bilan qurollantirish, balki uning ongini qayta qurish bilan bog'liq. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o'zgartiradi. O'sib kelayotgan yosh avlod uchun ta'lim tizimi sifat jihatdan yangicha talablar qo'yadi. Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish o'z navbatida bu sohada yangi, zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko'p jihatdan bog'liq. Ta'lim samaradorligi o'quvchi bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan holda yangi o'qitish uslublari, shakllari ta'lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Oqitishning zamonaviy metodlarini qollash oqitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Ananaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning ozlashtirish darajasi oshishiga olib keladi.

Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qollanayotgan metodlardan hisoblanadi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, oquv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, ro'lli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bolgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

“Keys-stadi” (yoki “Oquv keyslari”), “Blist-sorov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va b. Interfaol ta’lim strategiyalari. “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama- zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va boshqalar.

“Keys-stadi” texnologiyasi - “Case study” technology: Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki suniy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish konikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya.

“Keys-stadi” texnologiyasi

“Case” sozi, lotincha “casus”- “voqea, hodisa” so‘zidan kelib chiqqandir. Boshqacha aytganda, bu tushuncha hayotda yuz beradigan qandaydir voqea yoki hodisani, aniq bir vaziyatning tafsilotini anglatadi. Umuman olganda, keys – stadi (aniq bir holat yoki vaziyat), muayyan jarayonida sodir bo‘ladigan haqiqiy voqelikni so‘zlar, raqamlar, obrazlarda ifoda etishda namoyon boladi. Bundan tashqari, bu ifoda talim sohasida, hodisa yoki vaziyatni tadqiq etish uchun ishlatiladigan axborot, stenografiya sifatida qollaniladi. Keys-stadi hodisa yoki vaziyatni oddiy tafsilotidan farqli o‘laroq, u oquv materialini o‘zlashtirish uchun komaklashuvchi axborotni o‘z ichiga oladi, bunga duch kelgan muammoni aniqlash va uning echim yo‘llarini izlash orqali erishiladi. Keys-stadi, muayyan o‘quv maqsadli bilim olish vositasi sifatida ishlab chiqilishi zarur. Ushbu maqsadlar keng ko‘lamli bo‘lib, axborotlar, malumotlar yoki tafsilotlar bilan ta’minlanishini nazarda tutadi, ular muayyan qarashlar yoki usullarni namoyish etishda qo‘llanilishi mumkin.

Keysni tuzishda muayyan vaziyatni ifodalash uchun uning yozma shaklidan foydalanish shart emas. Vaziyatlarni ifodalash uchun fotografiya, videofilmlar, audioyozuvlar yoki slaydlardan foydalanish mumkin. Barcha ushbu vositalar tahsil oluvchilarga vaziyatni haqiqatga yaqinroq gavdalantirishga yordam beradi. Shu bilan birga yozma shakldagi axborot masalan fotografiya shaklidagi axborotdan kora qayta ishlash va tahlil etish uchun qulayroqdir. Bu hollarda fotografiyalarni yozma shakldagi axborot bilan toldirish zarur. Yozma keyslarni organish tajribasi bo‘lgan tahsil oluvchilarni o‘qitishda multivositalar axborotlaridan foydalanilgan keyslarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Keys-stadi (muayyan vaziyatlar) individiumlar, sheriklar, guruhlarda, korxonalarda, hattoki butun bir mamlakat miqyosida o‘zining ta’lim xususiyatiga ko‘ra nazarga keluvchi muammolarni ifodalashi mumkin. Keyslar ta’limning turli sohalarida: biznes, boshqaruv, tibbiyot, arxitektura, qurilish, hamda nostandart muammolar majmuasi echimini qabul qilish malakasini talab etadigan barcha fanlarda qo‘llanilishi mumkin.

“Keys-stadi” yordamida oqitishda muammolar aniqlanadi, echimlar topiladi,

tavsiyalar ishlab chiqiladi. Sifatli keys-stadilar, ularni tayyorlash, rasmiylashtirish va tekshirish uchun ko‘p vaqt talab etadi. Shu bilan birga to‘g‘ri tuzilgan va o‘quv faniga kiritilgan keys- stadi, fanni o‘zlashtirishda ko‘zlangan natijalarga erishishga imkoniyat beradi.

“Gugurt donalari” strategiyasi

“Gugurt donalari” strategiyasi o‘quv materiallarining talabalar tomonidan o‘rganilgan qay darajada egallanganligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Strategiya talabalarga oquv materialining mavzusidan kelib chiqqan holda turli muammoli masala yoki vaziyatlarni yaratish, mavzuning asosiy tayanch tushunchalarini ajratib olish, ularni izohlash, tahlil qilish, tarflashda yordam beradi. Shuningdek, strategiya mashgulot davomida har bir talabaga turli topshiriqlarni individual bajarish, uning ustida mustaqil ishlash imkonini beradi.

“Intervyu” metodi

Intervyu metoditexnologik maqsadi: har bir muammo bo‘yicha ma‘lum axborotga ega bo‘lish, hozir javoblikka o‘rgatish, mavzuni mustahkamlash.

Xuddi suhbat metodi kabi intervyu metodi ham savol-javob metodiga tegishlidir. Ko‘pincha intervyu uchun savollarni sotsiologik anketalarga o‘xshatib, yani turli masalalar yuzasidan ko‘plab javoblar olishni ko‘zlab tuziladi. Intervyu metodiga bunday tarzda yondashish tadqiqotning faqat birinchi bosqichiga, muammo bilan dastlabki tanishish bosqichiga tog‘ri keladi. Biroq bilimlarni va o‘rganilayotgan psixik xususiyatlarning tuzilishini hisobga olib tuzilgan savollar o‘rganilayotgan holatlar tuzilishi hamda darajalarini bundan keyin aniqlash uchun juda qimmatli natijalar berishi mumkin.

Bu metodning texnologini o‘tkazilish tartibi: ishtirokchilar 3 ta guruh va 1 ta ekspert, 3 ta jurnalistga bo‘linadilar. Har bir guruh oldindan tayyorlab qo‘yilgan klip, film namoyishini o‘tkazadi. Songra ular oldiga guruhga biriktirilgan jurnalist kelib, intervyu oladi va sharhlab beradi. Guruhga tayyorgarlik uchun 15 daqiqa vaqt beriladi. Guruhdagi eng faol ishtirokchilar savol – javob jarayonida qatnashishlari orqali aniqlanadi.

“Rolli oyin” metodi

“Rolli oyin” metodi – ta‘lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart- sharoitlarini sahnalashtirish orqali korsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga **“Rolli oyin”** metodida ta‘lim oluvchilar ta‘lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi ro‘llarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, **“Ishbop o‘yin”** metodida ro‘l ijro etuvchilar ma‘lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha

ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o'yin” metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o'ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq- atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o'yinlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

“Rolli o'yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o'yin ssenariysini ishlab chiqadi.

2. O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.

3. O'yinning maqsadidan kelib chiqib, ro'llarni taqsimlaydi.

4. Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.

5. O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo'llash uchun ssenariy ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo'yicha otilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan bazi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta'lim oluvchilar ushbu rolli o'yin korinishidan song o'z fikr- mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

So'z o'yini metodi.

Bu metodning texnologik maqsadi: tinglovchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi, o'z fikrlarini erkin bayon qiladi, boshqalarning fikrini eshitishga va xulosa chiqarishga o'rgatadi. O'yin tartibi: tinglovchilar kichik guruhga ajratiladi.

Guruhlar: Misol uchun Yuksak hayvonlar klonlarini yaratish biotexnologiyasi ishlqab chiqilishi, uning biotexnologiyadagi o'rni haqida o'zaro fikrlashib, navbat bilan o'z mulohazalarini bildiradilar.

So'z oyinida guruhlar kartochkalarni tanlab, ularda joylashtirilgan ma'lumotlardan hujayra va hayvon gen muhandisligiga doirlarini ajratib chiqishadi.

Natijalar doskada yoritiladi. O'qituvchi biror so'zi yozilgan format tarqatilgan qogozlarda klaster mashqini bajarib bo'lgach, o'qituvchi so'zlarni mantiqiy guruhlashtirish to'g'risida topshirik beradi. Masalan, ta'limiy, tarixiy yoki tarbiyaviy yonalishlarda guruhlashtirish. Topshiriq bajarilgach, guruhlarining fikr-mulohazalari tinglanadi.

Tayanch iboralar metodi.

Tayanch iboralar metodining texnologik maqsadi:

- talabalarining fanga bo'lgan qiziqishini o'rttirish;
- o'tilgan barcha mavzularni takrorlashga undan;
- kitob daftarlardan foydalanmasdan, o'zining haqiqiy bilimini sinab korish;
- talabani diqqatini jamlab, tez aniq fikrlashga o'rgatish;
- darsga guruhdagi barcha talabalarining jalb etilishi va har bir talabani baxolanishiga erishish;
- mashg'ulot o'tkazish tartibi:

Guruhlarga bo'lingan o'quvchilarga tayanch atamalar yozilgan tarqatma materiallar tarqatiladi. O'quvchilarga tanishib chiqish uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. So'ng o'qituvchi bir atamaning ilmiy tarifini o'qiydi, talabalar guruhi bilan maslaxatlashib to'g'ri deb hisoblagan javoblarini komanda berilgandan so'ng baravar ko'taradilar. (1 tadan ortiq javobni ko'tarish, kech qolib javob ko'tarish mumkin emas.) shu tarzda barcha tariflar o'qiladi, javoblar doskasida o'qituvchi tomonidan belgilab boriladi. Yani doska 4 ga bo'linadi, to'g'ri javobni ko'targan guruhga chiziqcha quyib ketiladi. Oxirida javoblar sanaladi, eng ko'p to'g'ri javob bergan guruh azolari 3 balldan, o'rtacha natija ko'rsatgan guruh 0,5 ball va eng kam natijaga erishgan guruh talabalariga 2 balldan qo'yiladi.

Kutiladigan natijalar:

Guruhdagi barcha ishtirokchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiriladi.

Ishtirokchilarni atamalarning faqat ilmiy tarifini bilishga emas balki shu atamaning tarifini sodda tilda tushuntirishga undaydi. Ishtirokchilarning shu mavzularning to'liq o'zlashtirishga erishiladi, tez fikrlashga o'rgatiladi.

Xulosa shundaki, interfaol metodlar asosida o'quvchilar yaxshi o'zlashtirib oladilar, 80- 90% samaradorlikka erishiladi. Bu usulning qoidasi "O'zim ishlashimga imkon ber, shunda u bir umr meniki bo'lib qoladi".

Adabiyotlar:

1. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T-O'qituvchi, 2004.

2. R.J.Ishmuhammedov Innovatsion texnologiyalar yordamida talim samaradorligini oshirish yo'llari. T- 2006.

3. Utemov V.V., Zinovkina M.M., Gorev P.M. Ijodkorlik pedagogikasi: ilmiy ijodkorlikning amaliy kursi: darslik. - 2013. - 212 p.

4. Абдумавлонова Ф. Х., Сейтов А. Ж. СХЕМЫ ГОРНЕРА НА МАТЕМАТИЧЕСКОМ ПАКЕТЕ MathCAD //Academic research in

educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 3. – С. 811-816.

5. Сейтов А. Ж., Абдумавлонова Ф. Х. Решение геометрических задач с помощью математического пакета MAPLE //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 933-941.

6. Abdumavlonova F. THE CONCEPT OF THREE-DIMENSIONAL SPACE AND CONSTRUCTION OF VOLUMETRIC BODIES ON THE MATHEMATICAL PACKAGE GEOGEBRA //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 938-950.

7. Salaeva M. N. et al. PISA TADQIQOTIDA KREATIV FIKRLASHNI BAHOLASH MAQSADI VA ASOSIY ETIBORI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1358-1364.

8. Сейтов А. Ж., Абдумавлонова Ф. Х. ПРИМЕНЕНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКОГО ПАКЕТА MATHCAD ДЛЯ ПРОВЕДЕНИЯ УРОКА НА ТЕМУ

9. ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЕ МОДЕЛИ В 11-КЛАССЕ
//Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 8. – С. 153-160.

2-mavzu: Siyosiy ta’limda o‘quv va kognitiv faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish metodlari.

Mustaqil ta’lim o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada va auditoriyadan tashqarida ijodiy hamda mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo‘ljallanganiga qarab bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda kreativlik usullaridan foydalanish juda muhim sanaladi.

Креативлик (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning

muayyan xususiyatlari, zehni o'tkirligini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, ***“kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi”***.

Kreativ yondashuv deganda, ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- asosiy e'tibor ijodiy ishga qaratilishi;
- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddati ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Kreativ yondashuv talabalarning bir-birlari bilan, o'qituvchi, dialog, ta'lim, ishbilarmon va rolli o'yinlar shaklida turli xil axborot manbalari bilan faol samarali hamkorligi, yangi ijtimoiy va professional tajribani o'zlashtirish uchun o'quv (kasbiy) vazifalarni hal etishga asoslangan aniq vaziyatlarni tahlil qilish sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlarni tahlil qilish asosida kreativ o'qitish usullarining (metodlari) boshqa guruh usullaridan ajralib turadigan xususiyatlari aniqlandi:

- faoliyatning guruhiiy tarkibi;

- talabalarni guruh faoliyatida o'quv va kasbiy vazifalarni hal qilishda o'zaro muloqotga jalb qilish: "talaba-talaba", "talaba-o'qituvchi", "talaba-kompyuter", "talaba-kitob"; o'zaro munosabatlar subyektlarining konstruktiv, teng huquqli muloqotiga yo'naltirilgan;
- turli madaniy matnlar (diagramma, grafik, formulalar, vazifa, ilmiy, badiiy matnlar, internet va boshqalar) bilan ishlashga yo'naltirilganligi;
- o'zaro hamkorlikning faol ishtirokchilari;
- natija olish uchun konstruktiv mahsulotni (natijalarni) va guruhlarining o'z-o'zini boshqarishini ta'minlaydigan ta'sir doirasini tashkil etish;
- kreativ yondashuv usullarining gumanitar tabiati, kommunikativ vaziyatlarni yaratish, muhim kasbiy muammolarni hal qilish, ko'plab kasbiy pozitsiyalarning paydo bo'lishi va qabul qilinishi, refleksiya (guruhli va individual).

O.A.Qo'ysinovning fikriga ko'ra, "mustaqil ta'lim olish maqsadini belgilash va uning o'quvchilarda mustaqil bilim olish, mustaqil ishlash, ijodkorlik, egallagan bilimlarni amaliyotda qo'llash, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikma va imkoniyatlarini shakllantirish umumiy kasbiy rivojlanishni ta'minlashga asos bo'ladi".

N.A.Muslimovning fikricha, "mustaqil ta'lim – bilimlarni o'zlashtirish, tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, ko'nikma va malakalarini hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining subyektiv maqsadga muvofiq, muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir".

Professorlar R.X.Djurayev va S.T.Turg'unovlarning qayd etishicha, "mustaqil ta'lim – bu insonning o'zi tanlagan vositalar hamda adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy ro'l o'ynaydi"[5].

Har qanday o'quv fani bo'yicha darsliklarning asosiy didaktik ashyosi matnlar, savol-topshiriqlar, mashqlar yoki misol-masalalar hisoblanadi. Ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishda darslik, o'quv qo'llanmalar va ta'lim beruvchining

alohida-alohida ahamiyatini ta'kidlash shart emas, balki uni mavzudagi ilg'or fikrlar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlar, voqea-hodisa yoki inson shaxsiga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirish kerak bo'ladi. Darslik yoki o'quv qo'llanmalardagi yoki ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan savol-topshiriqlar ta'lim oluvchini matn mazmunini hikoya qilishga (ayrim hollarda yodlab olishga) majburlamasligi kerak. Demak, mustaqil ta'lim – bu olingan bilim ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materiallarni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli.

N.A.Muslimov o'z tadqiqotlarida mustaqil ta'limning auditoriyadagi (hamkorlikdagi mustaqil ta'lim) va auditoriyadan tashqari (individual mustaqil) tashkil etuvchilari haqida fikr yuritgan. Mustaqil bilim olishning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'p jihatdan o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog'liq. Mustaqil bilim olishda didaktika tamoyillari hamda nazariya va pedagogik texnologiyalar asosiy rolni o'ynaydi. Shularni inobatga olgan holda biz mustaqil ish va mustaqil ish jarayoniga o'z yondashuvlarimizni keltirib o'tdik.

Mustaqil ta'lim – bu ta'lim muassasalarida fanlardan shunday bilim olish turiki, bunda talabalarning o'z oldilariga kreativ yondashuv asosida turli ta'lim metodlari asosida u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo'yishi, o'z faoliyatini rejalashtirishi va uni amalga oshirishi hamda o'zini baholay olish qobiliyatlari bilan aniqlanishidir.

Mustaqil ta'lim jarayoni talabalarning o'quv-tarbiya jarayonida mustaqil faoliyatini auditoriyada, auditoriyadan tashqari va mustaqil ravishda tashkil etishga yo'naltirilgan jarayondir. Mustaqil fikr yuritishga, aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan mashg'ulot turi mustaqil ta'lim bilan bog'liq bo'ladi. Mustaqil ta'limning asosiy masalasi ham aynan talabaning dars va darsdan so'nggi faoliyati faolligini ta'min etishga yo'naltirilgan shart-sharoit, erkin fikr va kasbiy mas'uliyatni his qilishni ta'min etishga qaratilgan ijodiy jarayondan iborat. Demak, fikr-shaxsning faoliyat jarayonidagi bilimi, tajribasi, qobiliyati va kuch-qudratini nomoyon etadigan ma'naviy-kasbiy sifatidir. Fikr tarbiyasiga qaratilgan ilmiy-amaliy manbalar eng qadimgi yozma yodgorliklardan bo'lmish “Avesto”da ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu

amal ko‘rinishida o‘z ifodasini topgan. Sharqning buyuk allomalari bo‘lmish Al-Buxoriy, At-Termiziy, Burxoniddin Marg‘iloniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Sa‘diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Bobur, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimizning ijodiy faoliyatida bu borada chuqur fikr-mulohazalar yuritilgan. Mustaqil ta‘lim va uning ma‘naviy-kasbiy mohiyati bo‘yicha konseptual yondashuvlar D.Krotval (AQSh), A.Dobrolskiy, V.Okon (Polsha), P.Galpern, K.Talizina, V.Buryak, S.Bondorenko, V.Slastenin, Y.Shiyanov (Rossiya), S.Rajabov, X.Ibragimov, M.Ochilov, N.Saidahmedov, O‘.Tolipov, X.To‘raqulov, M.Quronov (O‘zbekiston) va boshqalarning ishlarida bayon etilgan. Ammo mustaqil ta‘limga bo‘lgan innovatsion yondashuvlar bugungi islohotlar talabi darajasida to‘laqonli o‘z yechimini topgan emas. Talabalarning mustaqil ta‘limini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan ta‘lim prinsiplari, qonuniyatlar hamda uni amalga oshiruvchi interfaol metodlar metodikasi to‘liq modernizatsiya qilinmagan. Bu borada ilgari surilgan pedagogik g‘oyalarni generatsiyalash hamda uni yaxlit tizim holiga keltirish muammosi hal etilmagan. G‘oyalar integratsiyasi jarayonida mustaqil ta‘lim texnologiyasining o‘rni hozircha pedagogik jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Shunga ko‘ra, bugungi kunda bizning asosiy maqsadimiz ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq kreativ yondashuv asosida mustaqil ta‘lim texnologiyasi asosida talabalarning erkin ijodiy tafakkuri va shunga qaratilgan pedagogik g‘oyalar samaradorligini kafolatlovchi ta‘lim mazmunini takomillashtirishga erishishdan iborat.

Ma‘lumki, mustaqil ta‘limni yo‘lga qo‘yishda nafaqat talablarni muayyan fan bo‘yicha bilim ko‘nikma va malakalarini oshirish, ularda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish, shu bilan bir qatorda, bo‘lajak mutaxassis sifatida talaba shaxsida ijodiy va ilmiy tafakkurni rivojlantirish vazifasi turar ekan, ma‘lum ma‘noda global professionallik masalasi ham o‘z tasdig‘ini topmog‘i lozim. Bu jarayondagi ijodiy texnologik yondashuv talabadan tezkor fikrlashni va faol harakatni talab qiladi. Chunki talabadagi faollik ijodiy faoliyatga aylangan taqdirdagina mehnatni ilmiy tashkil qilish, vaqt byudjetidan unumli foydalanish amalga oshadi. Ana shunda talaba qiziqishlar

asosida o'zining diqqatini muayyan obyektga qarata oladi. Ijodiy texnologik faoliyat shunchaki oson kechadigan jarayon emas. Shaxsning sezgisi, idroki uning xotirasi hamda mantiqiy tafakkur ko'lami bilan uyg'un bog'lanib ketadi. Ijodiy faoliyatda talabdagi bilim innovatsion ko'nikma va malakalar bilan yanada takomillashib boradi. Analitik tafakkurning mahsuli o'laroq talaba:

- matn mazmunidan kerakli fikr qoida va ta'riflarni keltirib chiqarishi;
- innovatsion yondashuvlar asosida o'zining g'oyalarini ilgari surishi;
- olingan ma'lumotlar bankiga muvofiq statistik-matematik tahlillar o'tkazish va o'zining mustaqil fikrini ahamiyatiga ko'ra saralab, muayyan tizim holiga keltira olishi lozim.

Mustaqil ta'lim jarayonida tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimliliigi hamda o'quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog'liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek, beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir. Uning nazariy, amaliy, ilmiy, metodik va pedagogik asoslari tahlil qilinsa, samarali shakllari, vositalari tanlansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bunda o'tiladigan mavzuning amaliyot bilan uzviyligi, ilmiyligi va o'quv materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimliliigi, topshiriq hamda vazifalarning ko'p qirraliligi, o'zaro bog'liqligi muhim o'rin tutadi. Ammo, eng asosiysi, talabalarning mustaqil ravishda ta'lim olish faoliyatini tashkil etishda ularning intilish va qiziqishlariga e'tibor qaratish zarur. Talabalarning egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishini, ijtimoiy foydali, targ'ibot-tashviqot ishlarida ishtirok etishini ta'minlash maqsadga muvofiq.

Talabalarning mustaqil ta'limiga metodik jihatdan rahbarlik qilishda uni rivojlantirish yo'llarini o'rganib chiqish davr talabidir. Eng barqaror rag'batlantirish usuli bu kasbiy mehnat hamda ishga ijodiy yondashuv faoliyatidir. Yoshlarni turli-tuman amaliy, ijtimoiy, tashkiliy, ijodiy faoliyatga jalb etish ham mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish omilidir.

Didaktikaning asosiy masalalaridan biri talabalarning faolligini oshirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etishdan iborat. Drapeau Patti "ta'lim jarayonini boshqarishda o'quvchilarning faollik darajasini farqlashning ikki: o'quvchining

muhim vaqt ichidagi faoliyatini aniqlaydigan (o‘quvchining harakat tizimi unga tayyor holatda beriladigan, masalan, algoritmlar asosida o‘qitish); o‘quvchilarni izlash muammolarni yechishga yo‘llash (ular oldiga muammoli turdagi masalalarni qo‘yish) shakllarini ajratishga e‘tiborni qaratgan”.

Patti Drapeau nuqtayi nazariga ko‘ra, kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya‘ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Patti Drapeau “Agarchi o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz hamda yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”, deb ta’kidlaydi.

Ta’lim jarayonini oliygohlarda boshqarishning ikkinchi shakli talabalar faolligini oshirishga olib keladi. Hozirgi kundagi an’anaviy o‘qitishni quyidagi asosiy xususiyatlari bilan tavsiflash ma’lum:

1. Yangi o‘quv materialini deyarli to‘laligicha o‘qituvchi tomonidan og‘zaki bayon etiladi (agar talabalar yetarli boshlang‘ich bilimlarga ega bo‘lsalar, u holda o‘quv jarayonida suhbat usulidan ham foydalanish mumkin).
2. Darslik, asosan, uy vazifasini bajarishda qo‘llanadi (ba‘zan darslik o‘rnini qisman maxsus tayyorlangan ma’ruza matnlari egallashi mumkin).
3. Talabalar bilimini nazorat qilish alohida og‘zaki so‘rovlar yoki nazorat ishlari yordamida amalga oshiriladi.

4. O'quv jarayonida ko'proq talabalarning mustaqil ishlashi deyarli sezilmaydigan o'qitishning frontal usuli qo'llanadi.

O'quv jarayonini tashkil etishning bunday tizimidagi muhim kamchilik dars jarayonida talabalarning passivligi (sustligi) va bu bilan bog'liq darsning past samaradorligidir. Dars jarayonida talabalarning faolligini oshirish muammosini hal etish ta'limni yakalashtirishning asosiy masalalaridandir. Talabalarning faolligini oshirishda ularning mustaqil bilim olishi muhim o'rin tutsa, mustaqil olgan bilim darajasini aniqlash jarayonida esa ularning mustaqil ishlashi turadi. Talabaning mustaqil bilim olishida mustaqil ishlarni tashkil etish uslubiyatining o'ziga xos talablarini hisobga olish zarur.

Talabalarning mustaqil ishlashi, asosan, quyidagi uch tur: 1) vazifani o'qituvchining bevosita ishtirokisiz bajarishi; 2) ulardan o'quv materialida mo'ljallangan ishlarni mustaqil fikrlash natijasida tushunishning talab etilishi; 3) ularga topshiriqni bajarish usullarini va mazmunini tanlashda erkinlik berilishi hamda ishni bajarish vaqt bo'yicha qat'iy chegaralanmasligi kabi turlarga ajratiladi.

“Mustaqil” tushunchasining ikkinchi ma'nosini afzal ko'ruvchi olimlar o'quv ishining frontal yoki yakka tartiblarda tashkil etilishidan qat'i nazar talabalar mustaqil fikrlashini va qo'yilgan masalani hal qilishini muhim deb hisoblaydilar. Masalan, bunday fikrlar N.G.Dayrining tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Uchinchi ma'nodagi “mustaqil ishlash” tushunchasini R.G.Lemberg talabalar faoliyatini ikki turga ajratgan holda foydalanishni tavsiya etdi, ya'ni ijro etuvchi va mustaqil bajaruvchi. Ijro etuvchi faoliyat o'qituvchi ko'rsatmasi bo'yicha o'tkazilib, mustaqil bilim, malaka va ko'nikmalarning shakllanishi uchun zarur bo'lsa, mustaqil bajaruvchilik faoliyati talabalarning ichki tuyg'ulari yordamida yuzaga keladi, ya'ni ular o'zlarining faoliyat maqsadi va vazifalarini o'zlari aniqlaydilar”.

Asosiy e'tibor rivojlantiruvchi ta'limga qaratilgan ta'limni yakkalashtirish masalasiga bag'ishlangan ishlardan biri I.B.Zakirovaning rus tilidan mustaqil ishlarni yakkalashtirish – aqliy tarbiya vositasiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishidir.

Bu tadqiqot ishida mazmuni, xarakteri va hajmi yakka lashtirilgan masalalardan foydalanilgan bo'lib, bunday o'qitish o'quvchilarning aqliy faoliyatiga ijobiy ta'sir qilishi isbotlangan. Yakka lashtirishga doir tadqiqot ishlarining yo'nalishlaridan biri materialni to'la o'zlashtirilmaydigan talabalar bilan yakka holda ishlash imkoniyatlarini aniqlashdir.

Ko'p hollarda ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan o'quv jarayoni bilim darajasi o'rtacha bo'lgan talabalarga mo'ljallanmoqda, talabalar bilan yakka tartibda ishlash, mustaqil o'rganishga mo'ljallangan topshiriqlar bo'yicha metodik ishlanmalarining yo'qligi, iqtidorli talabaga mo'ljallangan topshiriqlarning kamligi ko'zga tashlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan mutaxassislik fanlaridan mustaqil ish topshiriqlarini ishlab chiqish, talabalarining mustaqil bilim olishlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning samarali yo'llarini izlashning yechimini topish zarurligi ko'rinib turibdi.

Olib borilgan kuzatishlar natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1.Talabalarining pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rganish, bunda ularning kreativ faoliyatni tashkil etishida uchraydigan kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion baryerlarni bartaraf etishning samarali yo'llarini belgilash lozim.

2.Talabalarining kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarining kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan, ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot-komunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

3.Mutaxassislar ta'kidlashicha, oliy ta'lim muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari

samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda talabalarning kreativ ko'nikma va malakalari rivojlanishining o'zgarishini baholab borish lozim. Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta'minotni yaratish jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Talabalarning fanlardan mustaqil ta'limini tashkil etishda, avvalo, ularning mustaqil bilim olishlari uchun ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hamda ta'limiy yondashuvlarni hisobga olish zarur. Talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida bilim, ko'nikmalarini shakllantirishga kreativ yondashuvning mohiyati shundan iboratki, talablarni bilimlarni chuqurroq egalashga, mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining parlamentga murojaatnomasi. 20-dekabr 2022-yil.

2. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – Санкт-Петербург: СПГУТД, 2006.

3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2007. – 315 b.

4. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. / Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2006. – 46 b.

5. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T: "Fan", 2009. – 168.

6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

7. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

8. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

3-Mavzu: Siyosatshunoslikni o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari turlari.

O‘qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida o‘quvchi va o‘qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo‘ladi. Bunday texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Hamkorlik pedagogikasi
2. Pedagogik jarayonda shaxsni kuzda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi);
3. O‘quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o‘qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi);
4. O‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga, qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi, N.P.Guzikning o‘qitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi);
5. O‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S.Graniskaya, V.D.Shadrikov texnologiyasi)

Hamkorlik pedagogikasi Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi va ta’limdagi ko‘pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi.

Sh.A.Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi. U o‘zining eksperimental maktabida hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvini, tili va matematika o‘qitishning ajoyib pedagogikasini ishlab chiqdi va hayotga tadbiq etdi. Sh.A.Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda oliyjanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug‘dirmos;
2. Bolaning qalbi va yuragini ulug‘lomoq;

3. Boladagi bilishga bo'lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;

4. Keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tug'dirmoq;

5. Ideal tarbiya – bu o'z-o'zini tarbiyalamoq. Sh.A.Amonashvili o'zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi: u insonparvarlik; u shaxsiy yondashuv; u oila pedagogikasining qo'shimcha imkoniyati; u o'quv faoliyati. u muloqot maxorati; Sh.A.Amonashvili texnologiyasida bola faoliyatini baholash alohida ahamiyatga ega. Baholardan foydalanish o'ta cheklangan. Miqdoriy baholashdan ko'ra sifatli baholashga urg'u beriladi, ya'ni tavsif, natijalar paketi, o'z-o'zini baholash.

3. O'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi) – o'qitishning an'anaviy sinf-dars usulining hali ochilmagan katta imkoniyatlarini ko'rsatib berdi. V.F. Shatalovning maqsad-mo'ljali: u bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish; u har qanday individual xususiyatlarga ega bo'lgan barcha bolalarni o'qitish; u o'qitishni tezlashtirish.

Tamoyillar: u ko'p marta takrorlash, majburiy bosqichma-bosqich nazorat, qiyinchilikning yuqori darajasi, katta bloklarda o'rganish, faoliyatning dinamik qolipi, xatti-harakatning tayanchi, muljaldagi asosini qo'llash; u shaxsni ko'zda tutish asosida yondashuv; u insonparvarlik; u zo'rlab o'qitmaslik; u o'quv vaziyatlarining konfliktsizligi, har bir o'quvchining muvaffaqiyatlaridan boxabarlik, tuzatish (yulga solish), o'qsish, yutuqlarga istiqbolni ochish; u O'qitish va tarbiyani bog'lash. V.F. Shatalov metodining uziga xosligi: u materiallar katta hajmda kiritiladi; u materiallar bloklar bo'yicha joylashtiriladi; u o'quv materiallari tayanch sxema — konspekt ko'rinshida rasmilashtiriladi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tayanch konspekt ko'rgazmali sxemani tashkil etmoqda. V.F.Shatalov tayanch (tayanish) deganda bola harakatlarining taxminiy asosini, ichki fikrlash faoliyatining tashqi tashkil qilinish usulini tushunadi. Tayanch signal o'zaro uzviy bog'lovchi ramzlar (ishora, so'z, sxema, rasm va h.o) bo'lib, qandaydir ma'noli mohiyatni almashtiradi. Tayanch konspekt – o'quv materiallari o'zaro bog'langan

usullarining butun qismlari sifatida faktlar, tushunchalar, g'oyalar tizimi o'rnida qullana oladigan qurgazmali konstruksiyalardan iborat qisqacha shartli konspekt ko'rinishidagi tayanch signallar sistemasidir.

V.F.Shatalovning xizmatlari shundaki, u mashg'ulotlarda yetarli darajada va barchaning faolligini ta'minlovchi o'quv faoliyati tizimini ishlab chiqdi.

V.F.Shatalov metodikasi 5 bosqichdan iborat bo'lib, ular bir qancha usul va metodik yechimlarni o'z ichiga oladi: 1. Nazariyani sinfda o'rganish: taxtada oddiy tushuntirish (bo'r, kurgazmali qurol, TV bilan); buyalgan plakat - tayanch konspekt bo'yicha qayta tushuntirish; plakat bo'yicha qisqacha bayon qilish; o'quvchilarning o'z konspektlari ustida individual ishlashlari, konspekt bloklari bo'yicha keng mustahkamlash. 2. Uydagi mustakil ishlar: tayanch konspektk darslik ota-onalar yordami. o'quvchilarga uqtirish: konspektidan foydalangan holda o'qituvchining tushuntirganlarini esla, berilgan materialni kitobdan o'qi; o'qiganlaringni konspekt bilan qiyosla; konspekt yordamida darslik materiallarini so'zlab ber (kodlashtirish- dekodlashtirish); konspektni so'zlab berish uchun tayanch sifatida yodda saqla; konspektni qayta ishlab chiqqish va namunaga qiyosla. 3. Birinchi takrorlash - konspektni uzlashtirishni har tomonlama keng nazorat qilish: barcha o'quvchilar konspektni xotirasida qayta ishlab chiqadilar, o'qituvchi ularni peshma-pesh tekshirib boradi; bir vaqtning o'zida "asta" va magnitafon orqali so'rab boradi; yozma ishdan so'ng og'zaki so'rash boshlanadi. 4. Tayanch konspektni og'zaki so'zlab olish – o'zlashtirishdagi tashqi nutq (og'zaki) faoliyatining eng muhim bosqichi, u turli savol-javoblar jarayonida yuz beradi. 5. Ikkinchi takrorlash-umumlashtirish va bir tizimga keltirish (tartibga tushirish): o'zaro nazorat darslari; oldindan sinov savollari ro'yxatini nashr qilish; tayyorlash; barcha turdagi nazoratlardan foydalanish (taxtada, astagina, yozma va b.); o'zaro so'rash va o'zaro yordam; o'yinli unsurlar (jamoalar bellashuvi, rebusni topishi va b.). Nazorat, baholash. V.F.Shatolov o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini bosqichma-bosqich nazorat qilishning bosh muammosini hal qildi. Doimiy tashki nazoratni o'zini-o'zi nazorat qilish va o'z- o'zini baholash bilan bog'lash, har birini bosqichma-bosqich nazorat qilish, kuchi yetadigan darajada talab qilish, doimo tuzatishning

imkoniyati mavjudligi, natijalar oshkorligi, ikki bahoning yo'qligi, past bahodan qo'rqishning yo'qligi. Nazorat shakllari: tayanch konspekt bo'yicha yozma ish, mustaqil ishlar, baland ovozda surash, magnitafonda, juftlikda o'zaro nazorat, guruhdagi o'zaro nazorat, uy nazorati, o'z-o'zini baholash. O'quvchi tomonidan olingan har bir baho bilimlarni maxsus ochilgan kuzguga qo'yib boriladi. U go'yo o'quvchiga xizmat qiladigan ro'yxat vazifasini bajaradi, baholar esa ijobiy shifrlangan tavsifnoma ahamiyatiga ega bo'ladi. Bunday tavsifnomani e'lon qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Bu tavsifnomaning eng muhim tomoni shundaki, o'quvchi xohlagan vaqtida har qanday bahoni nisbatan yuqori bahoga uzgartirishi mumkin. Ochiq imkoniyat tamoyilining mohiyati ham shunda. Har bir baho, - deb ta'kidlaydi V.F. Shatalov, avvalambor, o'quvchida ijobiy e'tiborni kuzgatadigan vosita, turtki bo'lib xizmat qilishi lozim. Ikki baho salbiy hislarga sabab bo'ladi, o'qituvchi va fan bilan ziddiyatni keltirib chiqaradi. Shatalov bunday qarama-qarshi vaziyatlarni bartaraf qiladi. Metodik usullar (pedagogik mikrounsurlar) tirkamasiga: uchirma takrorlash, releli (almashma) nazorat ishlar, desant metodi, zanjir metodi, vazifalar ichida "chumilmoq", kitobdagi xatolarni topmoq, varaqchalarda misol-masala yechish, tanlov asosida misol-masala yechish, 4 qo'lda yechish, tajriba darslari, "miyaga" niqtash, quyidan yuqoriga qarab yechish, aytib berganni rag'batlantirish, ochiq fikrlar darsi, oltinchi ball, ijodiy konspekt, tezaytish, keskinlikni yumshatish usullari (musiqqa, yorug'lik, tanaffus va b.) va b. V.F.Shatalov tomonidan ishlab chiqilgan o'quv faoliyati tizimi maktab o'quvchilarida eksperiment qilingan, lekin uning metodikasi matematika o'qitish doirasidan chiqib, nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar fanlar: til, tarix kabi fanlarni o'qitishda ham keng tarqaldi.

O'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash, o'qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkon yaratadi. Endi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning nima uchun bugungi kunda dolzarb bo'lib borayotganligi, nima uchun mazkur texnologiyalar ta'limning hozirgi kuni, kelajagi bo'lib qolganligi hamda ularning mohiyati haqida qisqacha to'xtalamiz.

Mazkur o'qitish texnologiyasida pedagogikaning o'quvchiga munosabati

avtoritar xarakterga ega, ya'ni ta'lim jarayonida u yagona subyekt sifatida namoyon bo'ladi, o'quvchilar esa faqatgina obyekt vazifasini bajaradi, xolos. Boshqacha qilib aytganda avtoritar o'qitish texnologiyasida o'quvchining tashabbusi va mustaqilligi deyarli yo'qoladi, o'qitish majburiy yo'sinda amalga oshiriladi. Hanuzgacha jahonda eng ko'p tarqalgan o'qitishning sinf-dars tizimida mashg'ulotlari asosiy birligi dars bo'lib, u bitta fanining bitta mavzusiga bag'ishlanadi va o'qituvchi tomonidan boshqariladi.

An'anaviy o'qitish texnologiyasining qusurlari ustida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997-yil 29-avgust) Birinchi Prezident Islom Karimov bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi? Umuman maktabda mustaqil fikr yuritishga o'rgatiladimi? degan savollarni qo'ydilar va ularga quyidagicha 25 javob berdilar: «Aminmanki, o'rgatilmaydi. Mobodo biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga u hyech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktabdagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: «Mening aytganim-aytgan, deganim-degan». Demak, an'anaviy ta'lim texnologiyasida o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik, ya'ni zo'ravonlik pedagogikasi amal qiladi». Ko'rinib turibdiki, birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, zo'ravonlikka asoslangan bu pedagogikada pedagog yagona subyekt, o'quvchilar pedagogik jarayon obyekti, o'qitish tushuntiruv-ko'rgazmali usulda olib boriladi. O'qitish ommaviy tarzda olib borilishi tufayli o'quvchilarning tashabbusi va mustaqilligi o'zidan-o'zi so'nib boraveradi. Shu bois texnologiya asosan o'quvchilarda bilim, ko'nikmalarni shakllantiradi, ular shaxsini rivojlantirishni ko'zda tutmaydi. O'z-o'zidan ko'rinadiki, an'anaviy o'qitish texnologiyasi o'z tabiatiga ko'ra ta'lim muassasalari oldiga jamiyatimiz tomonidan qo'yilgan talablarga butunlay javob bermaydi. Bundan farqli o'laroq shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda o'quvchi ta'limning milliy modeli mohiyatiga ko'ra pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratib beriladi. Ta'limning milliy

modelini – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarishdan iborat 5 ta tarkibiy qismida «shaxs» asosiy tarkibiy qism – birinchi o’rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta’lim tizimi, shu jumladan o’qitish o’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan bo’lishi lozim.

Shaxsga yo’naltirilgan o’qitish texnologiyalarining kommunikativ asosi – pedagogik jarayonda o’quvchiga insoniy-shaxsiy yondashishdir. Buni bir-birini to’ldiradigan, shaxsiy-insoniy munosabatlarni rivojlantiradigan 1-2-3 slaydlarda ko’rish mumkin.

O’rnatilayotgan yangicha munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi kunda natija bermaydigan va noinsoniy hisoblangan zo’ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir, chunki tarbiya jarayonida zo’ravonlik aslo mumkin emas, jazolash insonni kamsitadi, ezadi, uning rivojlanishini susaytiradi.

Isloh qilinayotgan ta’lim muassasalarida o’quvchi yoshlarni erkin, majburlashsiz o’qitish, ularning shaxsiga individual yondashishning mazmun- mohiyatini namoyon qilish juda muhimdir. Shu bois diqqatingizni 4-5 slaydlarga tortamiz.

Ko’rinib turibdiki, kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh maqsadini, ya’ni mamlakatimizda rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni, oliy va o’rta maxsus tayyorlash tizimini, ularda o’ziga xos va nostandart fikrlash qobiliyatini o’stirishni, o’z ustida doimiy ravishda chidam va matonat bilan ishlash ko’nikmalarini rivojlantirishni an’anaviy o’qitish texnologiyasi asosida amalga oshirish mumkin emas.

Adabiyotlar:

1. Indiaminov N. va b. Ta’lim samaradorligini oshirishda shaxsga yo’naltirilgan ta’lim. *Ta’lim texnologiyalari*. 2014(8).
2. Ахунова Г.Н., Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш. / Б.Ю.Ходиев тахрири остида. – Т.: «Иқтисодиёт», 2009.
3. Основы личностно-ориентированного образования. / И.С.Якиманская. – М.: «Бином. Лаборатория знаний», 2011.
4. Sherov, D. (2020). Succession Issues in Teaching English. *Academic Research in Educational Sciences*, (3).
5. Rahim, A., & Doston, S. (2020). IMPROVING THE

CONVERSATIONAL

PROCESS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(1), 6-6.

6. Makhmudov, K. (2021). Effective methods of teaching reading in English language lessons. *Academic research in educational sciences*, 2(3).

4-Mavzu: Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metodlar. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi

Mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Dunyoda ta'lim tizimida ro'y berayotgan ta'limning internatsionallasuvi, talabalarning xalqaro mobilligi, ta'lim dasturining tez o'zgaruvchanligi kabi global tendensiyalar qatoriga ta'lim sifatini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-ahloqiy, intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo'yilayotgan yuqori talablar ta'lim muassasalari oldiga xalqaro talablarga javob bera oladigan sifatli kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Bu vazifalarni bajarish yo'lida esa ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Ammo ta'lim tizimida zamonaviy tendensiyalarni, ayniqsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tizimida foydalanayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni isloh qilishning zamonaviy tajribalari nisbatan sekin o'zlashtirilmoqda.

Pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etishning izchil metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning xamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning

tizimli metodi (YuNESKO).

Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish, so'nngi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxassislik bo'yicha, masalan kimyo sohasidagi so'nggi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o'tish talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi.

Bizning fikrimizcha ta'lim jarayonida avval qiziqish uyg'otib, motivatsiya berib, so'ngra raqobat muhiti yaratilsa talabalarda innovatsiya yaratishdagi yashirin qobiliyatlari uyg'otiladi va albatta rag'batlantirish amalga oshirilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. Talabalarga ilm-fan va innovatsiya yaratishda yutuqlarga erishgan insonlardan misol keltirib, iloji bo'lsa ulardan birini o'rnak bo'luvchi inson sifatida darsga taklif qilib, yoki innovatsiyalar markaziga talabalarni ekskursiyalarga etishni yo'lga qo'yilsa maqsadga tezroq erishilgan bo'lardi.

Innovatsiyalar yarmarkasiga va hududdagi IT parklarga talabalarni ekskursiyaga etishni tashkil qilsak ta'limda berilgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashda erishilgan yutuqlarni ko'paytirishiga ishonamiz.

Mutaxassisligiga mos ravishda mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalariga va zavodlarga talabalarni amaliyotga yuborishni institutlarimizda allaqachon yo'lga qo'yganmiz. Lekin bizning taklifimiz shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan bir vakilni faxriy mehmon sifatida institutga taklif qilib, seminarda shaxsan nutqlarini eshitish sharafi va bundan olingan taassurotlar ko'lami iqtidorli talabalarni ruhlantirgan bo'lardi.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation"-yangilik kiritish, ixtiro) ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllanirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi. O'qituvchi innovatsion

texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor,elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi.

“Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni **tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish**

bosqichlarida amalga oshiriladi.”-degan edi mashhur pedagog A.Nikolskaya.

Innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad o'qituvchi va o'quvchi mushtarakligiga erishish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish, ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, o'rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish, axborot kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg'unlashtirish kabilarni keltirish mumkin. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi- talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar kelajakda ham mehnat bozorida talab mavjud bo'ladigan zamonaviy mutaxassis-kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim jarayonida juda muhim ahamiyatga egadir.

Zamonaviy kadrlar tayyorlash uchun pedagogning o'zi ham zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda, eng so'nngi ilm-fan yutuqlaridan, o'zi bilim berayotgan soha yangiliklaridan xabardor bo'lishi va eng yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishi talab etiladi.

Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha konsepsiyada mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarini xalqaro 1000talik ta'lim muassasalari safiga kiritish maqsad qilingan. Ammo innovatsion pedagogik texnologiyalarning xalqaro tajribasini o'rganish va unlarni tadbiq etish nisbatan sekin amalga oshirilmoqda.

Fikrimizni aniqroq bayon etish uchun turli xildagi abituriyent tayyorlash o'quv kurslarini misol qilib keltirsak, bir tayyorlov kursi pedagogining maqsadi eng avvalo nomi eng yaxshilar safiga kirishi emas, mehnati samarasi bo'lgan tahsil oluvchilarning ko'zlangan maqsadiga erishishi bo'lib hisoblanadi. Misol uchun, ingliz tilidan IELTS kurslarini tahsil oluvchilari ushbu sertifikatni yuqori ballarda egallashi, fanlar bo'yicha abituriyentlarning o'zi tanlagan oliy ta'lim muassasasigaga yuqori natijalar bilan o'qishga kirishi- o'sha pedagogning birinchi o'rindagi maqsadi bo'lib hisoblanadi va shu maqsadga erishishi o'z-o'zidan uni eng yaxshi kurslar qatoriga kiritib qo'yadi. Ushbu yutuqlarning barchasi o'sha pedagogning nafaqat kuchli bilimiga, balki shu bilimni yetkazib berishga doir pedagogik texnologiyasiga ham bog'liqdir.

Oliy ta'lim muassasalarida ham maqsadni ushbu dargoh tayyorlagan mutaxassislar karyerasidagi yutuqlari va yuqori talabga ega yetuk kadr bo'lganlini bilan bog'lash kerak deb hisoblaymiz. Chunki har qanday faoliyatning sifatli amalga oshirilganligi uning natijasida aks etadi. Ta'lim jarayonining sifatli amalga oshirilishida o'qitishni innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshirishning o'рни beqiyosdir. OTMlardagi muayyan yo'nalishdagi mutaxassisni tayyorlashda shunday sifatli, amaliyot bilan bog'liq bo'lgan holdagi ta'lim berish kerakki bitiruvchilar ishga kirish jarayonida yana qo'shimcha kurslarga borishiga hojat qolmasin. Masalan buxgalteriya sohasida tahsil olayotgan talabalarga 1S va 1UZ kabi buxgalteriya dasturlarida ishlash talabalik davrida o'rgatilsin, ular diplom olgandan keyin yana pul to'lab kurslarga borib o'rganishga zarurat sezmasin. Yoki ingliz tili yo'nalishida tahsil oladigan, OTMda berilgan bilimlar asosida IELTS sertifikatini olishga qodir bo'lsin, yana kurslarga qatnamasdan.

Hozirgi va kelajakda eng katta talab qaratilgan kasb bu - IT bo'yicha mutaxassislardir. Mana shu yo'nalishlar ko'proq ochilsin oliy ta'lim muassasalarida va

shu sohada yetuk kadrlar tayyorlash uchun pedagoglar ham chuqur bilim va yuksak pedagogik mahoratga ega bo'ib, innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishsin. Mana shu kabi sohalarda yutuqlarga erishishi uchun zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan ta'minlangan va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tiladigan oliy ta'lim muassasalari eng yaxshi institutlar safiga albatta kiradi deb o'ylaymiz. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlashda o'qituvchida innovatsion faoliyat haqida tushuncha bo'lishi kerak. Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat. **Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:**

- yangilikni qo'llashga tayyorligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi; - kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi.

Innovatsion faoliyat-yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualar muammolarini yechishga qaratilgan faoliyat.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida bilim, ko'nikma, malakani egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi. ³[4]

1-bosqichda tayyor metodik tavsifnoma (mavjud innovatsiya, masalan xorij tajribasida qo'llanilgan ammo biz uchun yangi)lardan foydalanish amalga oshiriladi.

2-bosqichda mavjud tizimga pedagog o'zining yangi g'oyalarni, metodini kiritadi.


Pedagoglarning innovatsion yondashuvini qaror toptirishning

3- bosqichida o'sha ikkinchi bosqichda yaratgan g'oya, innovatsion metodini o'zi faoliyat yuritayotgan muassasada amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi.

4-bosqichda esa pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z konsepsiyasi(g'oyalari yig'indisi) yoki metodikasini yaratadi.

Mana shu bosqichlarda pedagog innovatsion yondashuvlarini amalga oshirsa va pedagogik texnologiyalarda yangilik kiritib, ulardan foydalanib dars o'tsa ta'lim sifati albatta oshadi. Umuman olganda mamlakatimizda ta'lim sohasiga, hamda innovatsiyalarga katta e'tibor berilmoqda.

Pedagoglarda innovatsion yondashuvni qaror topishi ham murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi. Ya'ni (1-rasm):



1-rasm. Pedagoglarda innovatsion yondashuvni qaror toptirish bosqichlari.

Mutaxassislarning fikricha, innovatsion elektron darslik inson aql-zakovatining katta hajmdagi axborotni eslab qolish va bu ma'lumotlar orqali muloqot va fikrlash jarayonlari assotsiatsiyasi orqali izlash qobiliyatiga taqlid qiladi. Boshqacha aytganda, innovatsion elektron darslik ko'plab statistik va dinamik ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan va umumlashgan tarmoq tuzilmasiga ega bo'lgan murakkab o'quv materiallari tizimidir: video, bajariladigan dastur va animatsiya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni hamda[1] 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq shu nomli vazirlik tashkil etilgan bo'lib, uning vazifalari qatoriga ijtimoiy rivojlanishga, shu jumladan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga innovatsiyalarni joriy etish ham kiritilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'limni sifatini ko'tarsa, innovatsion texnologiyalar ta'lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchdir. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.
3. Avliyoqulov N.X, Musayeva N.N. "Yangi pedagogic texnologiyalar" darslik 15-20b.
4. N.A.Muslimov "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" o'quv- uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.
5. Рахматов, Марат Салимович, Мавлуда Сайфиддиновна Норова, Исмат Худойкулович Давлатов. "ПРОБЛЕМЫ ПЕРСПЕКТИВНЫХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ ТЕХНИКИ ИТЕХНОЛОГИИ." Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации. 2014

IV.AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT: O'QITISHNING ANANAVIY VA ZAMONAVIY METODLARI.

Ananaviy ta'lim texnologiyasi – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'qitishning ananaviy shakli, metodi va talim vositalarining majmuidan foydalangan holda ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishdir.

Ta'limga ananaviy yondashuv. Uning asosiy xususiyati, o'qituvchi ma'lum axbarotni gapirib beradi, tushuntiradi, talaba esa bu bilimni xotirasida saqlaydi.

Bilim tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Talabada bilim bor-yo'qligi imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bunda bilim degani, asosan, esda qoldirishning natijasidir, u ko'pincha yuzaki bo'lishi ham mumkin. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi. Talaba savol berilganda eslashi, ba'zan eslay olmasligi ham mumkin.

Noananaviy ta'lim texnologiyasini o'z navbatida uch qismga bo'lish mumkin:

hamkorlikda o'rganish, modellashtirish, tadqiqot (Loyiha)

Hamkorlikda o'rganish – talabalarning bilimini o'zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo'yicha reproduktiv (Esda saqlab qolish) faoliyatini ta'minlovchi, talabalarning kichik guruhlarda yoki juftliklarda ishlashi evaziga ta'lim olishidir. Mazkur texnologiyadan foydalanishda kitob bilan ishlash, o'quv suhbat, davra suhbat, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara kabi metodlarni qo'llash mumkin.

Modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini auditoriya xonasida yaratish hamda ularda talabalarning shaxsan qatnashishi, o'z faoliyati evazigata'lim olishini ko'zda tutadi. Uning asosiy maqsadi talabalarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarini o'zlashtirishda bevosita ishtirokini taminlash orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu ta'lim texnologiyasiga ishbop o'yinlar va rolli o'yinlar kabi metodlarni kiritish mumkin.

Tadqiqot – talabalar tomonidan muammoni tushunish va yechish, mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan va shunga undaydigan usullar yig'indisidan iboratdir. Tadqiqotning maqsadi, dars jarayonida talabalar tomonidan savol qo'yish va ularga javob izlashga qiziqishini uyg'otishga qaratilgandir. Bu texnologiya bilan o'qitish talabalarni amaliy izlanish jarayonida bevosita qatnashishini taminlaydi. Bularga muammoli vaziyat, loyiha metodi, mustaqil izlanish, yo'naltiruvchi matn kabi metodlar kiradi.

Bugungi kunda globallashtirishni ilm-fan tamoyillariga muvofiqlik asosida tashkil etish bu kabi muammolarni bartaraf etishning asosiy omillari sifatida qarash maqsadga

muvofigdir. Ta'limning noyob imkoniyatlari hozir nafaqat inson aqlini yangi tezkor imkoniyatlar bilan qurollantirish, balki uning ongini qayta qurish bilan bog'liq. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o'zgartiradi. O'sib kelayotgan yosh avlod uchun ta'lim tizimi sifat jihatdan yangicha talablar qo'yadi. Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish o'z navbatida bu sohada yangi, zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko'p jihatdan bog'liq. Ta'lim samaradorligi o'quvchi bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan holda yangi o'qitish uslublari, shakllari ta'lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Oqitishning zamonaviy metodlarini qollash oqitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Ananaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning ozlashtirish darajasi osishiga olib keladi.

2-AMALIY MASHG'ULOT: SIYOSIY TA'LIMDA O'QUV VA KOGNITIV FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA AMALGA OSHIRISH METODLARI.

Mustaqil ta'lim o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada va auditoriyadan tashqarida ijodiy hamda mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo'ljallanganiga qarab bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda kreativlik usullaridan foydalanish juda muhim sanaladi.

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlari, zehni o'tkirligini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, ***“kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi”***.

N.A.Muslimov o'z tadqiqotlarida mustaqil ta'limning auditoriyadagi (hamkorlikdagi mustaqil ta'lim) va auditoriyadan tashqari (individual mustaqil) tashkil etuvchilari haqida fikr yuritgan. Mustaqil bilim olishning muvaffaqiyatli rivojlanishi

ko'p jihatdan o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog'liq. Mustaqil bilim olishda didaktika tamoyillari hamda nazariya va pedagogik texnologiyalar asosiy rolni o'ynaydi. Shularni inobatga olgan holda biz mustaqil ish va mustaqil ish jarayoniga o'z yondashuvlarimizni keltirib o'tdik.

Mustaqil ta'lim – bu ta'lim muassasalarida fanlardan shunday bilim olish turiki, bunda talabalarning o'z oldilariga kreativ yondashuv asosida turli ta'lim metodlari asosida u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo'yishi, o'z faoliyatini rejalashtirishi va uni amalga oshirishi hamda o'zini baholay olish qobiliyatlari bilan aniqlanishidir.

Mustaqil ta'lim jarayoni talabalarning o'quv-tarbiya jarayonida mustaqil faoliyatini auditoriyada, auditoriyadan tashqari va mustaqil ravishda tashkil etishga yo'naltirilgan jarayondir. Mustaqil fikr yuritishga, aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan mashg'ulot turi mustaqil ta'lim bilan bog'liq bo'ladi. Mustaqil ta'limning asosiy masalasi ham aynan talabaning dars va darsdan so'nggi faoliyati faolligini ta'min etishga yo'naltirilgan shart-sharoit, erkin fikr va kasbiy mas'uliyatni his qilishni ta'min etishga qaratilgan ijodiy jarayondan iborat. Demak, fikr-shaxsning faoliyat jarayonidagi bilimi, tajribasi, qobiliyati va kuch-qudratini nomoyon etadigan ma'naviy-kasbiy sifatidir.

Ta'lim jarayonini oliygohlarda boshqarishning ikkinchi shakli talabalar faolligini oshirishga olib keladi. Hozirgi kundagi an'anaviy o'qitishni quyidagi asosiy xususiyatlari bilan tavsiflash ma'lum:

1. Yangi o'quv materialini deyarli to'liqligicha o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon etiladi (agar talabalar yetarli boshlang'ich bilimlarga ega bo'lsalar, u holda o'quv jarayonida suhbat usulidan ham foydalanish mumkin).
2. Darslik, asosan, uy vazifasini bajarishda qo'llanadi (ba'zan darslik o'rnini qisman maxsus tayyorlangan ma'ruza matnlari egallashi mumkin).
3. Talabalar bilimni nazorat qilish alohida og'zaki so'rovlar yoki nazorat ishlari yordamida amalga oshiriladi.
4. O'quv jarayonida ko'proq talabalarning mustaqil ishlashi deyarli sezilmaydigan o'qitishning frontal usuli qo'llanadi.

3-AMALIY MASHG'ULOT: SIYOSATSHUNOSLIKNI O'QITISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI TURLARI.

O'qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida o'quvchi va o'qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo'ladi. Bunday texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin:

6. Hamkorlik pedagogikasi

7. Pedagogik jarayonda shaxsni kuzda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi);

8. O'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi);

9. O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga, qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi, N.P.Guzikning o'qitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi);

10.O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S.Graniskaya, V.D.Shadrikov texnologiyasi)

Hamkorlik pedagogikasi Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi.

Sh.A.Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi. U o'zining eksperimental maktabida hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvini, tili va matematika o'qitishning ajoyib pedagogikasini ishlab chiqdi va hayotga tadbqiq etdi. Sh.A.Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

6.Bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda oliyjanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug'dirmos;

7.Bolaning qalbi va yuragini ulug'lomoq;

8.Boladagi bilishga bo'lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;

9.Keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tug'dirmoq;

10. Ideal tarbiya – bu o'z-o'zini tarbiyalamoq. Sh.A.Amonashvili o'zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi: u insonparvarlik; u shaxsiy yondashuv; u oila pedagogikasining qo'shimcha imkoniyati; u o'quv faoliyati. u muloqot maxorati; Sh.A.Amonashvili texnologiyasida bola faoliyatini baholash alohida ahamiyatga ega. Baholardan foydalanish o'ta cheklangan. Miqdoriy baholashdan ko'ra sifatli baholashga urg'u beriladi, ya'ni tavsif, natijalar paketi, o'z-o'zini baholash.

3. O'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi) – o'qitishning an'anaviy sinf-dars usulining hali ochilmagan katta imkoniyatlarini ko'rsatib berdi. V.F. Shatalovning maqsad-mo'ljali: u bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllaitirish; u har qanday individual xususiyatlarga ega bo'lgan barcha bolalarni o'qitish; u o'qitishni tezlashtirish.

An'anaviy o'qitish texnologiyasining qusurlari ustida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997-yil 29-avgust) Birinchi Prezident

Islom Karimov bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi? Umuman maktabda mustaqil fikr yuritishga o'rgatiladimi? degan savollarni qo'ydilar va ularga quyidagicha 25 javob berdilar: «Aminmanki, o'rgatilmaydi. Mobodo biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga u hyech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktabdagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: «Mening aytganim-aytgan, deganim-degan». Demak, an'anaviy ta'lim texnologiyasida o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik, ya'ni zo'ravonlik pedagogikasi amal qiladi». Ko'rinib turibdiki, birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, zo'ravonlikka asoslangan bu pedagogikada pedagog yagona subyekt, o'quvchilar pedagogik jarayon obyekti, o'qitish tushuntiruv-ko'rgazmali usulda olib boriladi. O'qitish ommaviy tarzda olib borilishi tufayli o'quvchilarning tashabbusi va mustaqilligi o'zidan-o'zi so'nib boraveradi. Shu bois texnologiya asosan o'quvchilarda bilim, ko'nikmalarni shakllantiradi, ular shaxsini rivojlantirishni ko'zda tutmaydi. O'z-o'zidan ko'rinadiki, an'anaviy o'qitish texnologiyasi o'z tabiatiga ko'ra ta'lim muassasalari oldiga jamiyatimiz tomonidan qo'yilgan talablarga butunlay javob bermaydi. Bundan farqli o'laroq shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda o'quvchi ta'limning milliy modeli mohiyatiga ko'ra pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratib beriladi. Ta'limning milliy modelini – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishdan iborat 5 ta tarkibiy qismida «shaxs» asosiy tarkibiy qism – birinchi o'rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta'lim tizimi, shu jumladan o'qitish o'quvchi shaxsiga yo'nartirilgan bo'lishi lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining kommunikativ asosi – pedagogik jarayonda o'quvchiga insoniy-shaxsiy yondashishdir. Buni bir-birini to'ldiradigan, shaxsiy-insoniy munosabatlarni rivojlantiradigan 1-2-3 slaydlarda ko'rish mumkin.

O'rnatilayotgan yangicha munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi kunda natija bermaydigan va noinsoniy hisoblangan zo'ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir, chunki tarbiya jarayonida zo'ravonlik aslo mumkin emas, jazolash insonni kamsitadi, ezadi, uning rivojlanishini susaytiradi.

Isloh qilinayotgan ta'lim muassasalarida o'quvchi yoshlarni erkin, majburlashsiz o'qitish, ularning shaxsiga individual yondashishning mazmun-mohiyatini namoyon qilish juda muhimdir. Shu bois diqqatingizni 4-5 slaydlarga tortamiz.

Ko'rinib turibdiki, kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh maqsadini, ya'ni mamlakatimizda rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni, oliy va o'rta maxsus tayyorlash tizimini, ularda o'ziga xos va nostandart fikrlash qobiliyatini o'stirishni, o'z ustida doimiy ravishda

chidam va matonat bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishni an'anaviy o'qitish texnologiyasi asosida amalga oshirish mumkin emas.

4-AMALIY MASHG'ULOT: TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION METODLAR.

Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi.

Mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Dunyoda ta'lim tizimida ro'y berayotgan ta'limning internatsionallashuvi, talabalarning xalqaro mobilligi, ta'lim dasturining tez o'zgaruvchanligi kabi global tendensiyalar qatoriga ta'lim sifatini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-ahloqiy, intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo'yilayotgan yuqori talablar ta'lim muassasalari oldiga xalqaro talablarga javob bera oladigan sifatli kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Bu vazifalarni bajarish yo'lida esa ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Ammo ta'lim tizimida zamonaviy tendensiyalarni, ayniqsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tizimida foydalanayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni isloh qilishning zamonaviy tajribalari nisbatan sekin o'zlashtirilmoqda.

Innovatsiyalar yarmarkasiga va hududdagi IT parklarga talabalarni ekskursiyaga etishni tashkil qilsak ta'limda berilgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashda erishilgan yutuqlarni ko'paytirishiga ishonamiz.

Mutaxassisligiga mos ravishda mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalariga va zavodlarga talabalarni amaliyotga yuborishni institutlarimizda allaqachon yo'lga qo'yganmiz. Lekin bizning taklifimiz shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan bir vakilni faxriy mehmon sifatida institutga taklif qilib, seminarida shaxsan nutqlarini eshitish sharafiga va bundan olingan taassurotlar ko'lamini iqtidorli talabalarni ruhlantirgan bo'lardi.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation"-yangilik kiritish,ixtiro) ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllanirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi. O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asosan darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor,elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga

harakat qiladi.

“Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya’ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi.”-degan edi mashhur pedagog A.Nikolskaya.

Innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad o’qituvchi va o’quvchi mushtarakligiga erishish, o’quvchilarni fanga qiziqtirish, ta’limga bo’lgan munosabatni o’zgartirish, o’rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo’llay olish ko’nikmasiga ega bo’lish, axborot kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg’unlashtirish kabilarni keltirish mumkin. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar,

pedagogik va axborot texnologiyalari o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi. Pedagogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o’quvchi- talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo’lishlarini ta’minlaydi.

Hozirgi va kelajakda eng katta talab qaratilgan kasb bu - IT bo’yicha mutaxassislardir. Mana shu yo’nalishlar ko’proq ochilsin oliy ta’lim muassasalarida va shu sohada yetuk kadrlar tayyorlash uchun pedagoglar ham chuqur bilim va yuksak pedagogik mahoratga ega bo’b, innovatsion texnologiyalar asosida o’qitishsin. Mana shu kabi sohalarda yutuqlarga erishishi uchun zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan ta’minlangan va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida dars o’tiladigan oliy ta’lim muassasalari eng yaxshi institutlar safiga albatta kiradi deb o’ylaymiz. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlashda o’qituvchida innovatsion faoliyat haqida tushuncha bo’lishi kerak. Mohiyatiga ko’ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat. **Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:**

- yangilikni qo’llashga tayyorligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi; - kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo’naltirish asosida bilim, ko’nikma, malakani egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to’ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi. ³[4]

1-bosqichda tayyor metodik tavsifnoma (mavjud innovatsiya, masalan xorij tajribasida qo'llanilgan ammo biz uchun yangi)lardan foydalanish amalga oshiriladi.

2-bosqichda mavjud tizimga pedagog o'zining yangi g'oyalarni, metodini kiritadi.

Pedagoglarning innovatsion yondashuvini qaror toptirishning

3- bosqichida o'sha ikkinchi bosqichda yaratgan g'oya, innovatsion metodini o'zi faoliyat yuritayotgan muassasada amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi.

4- bosqichda esa pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z konsepsiyasi(g'oyalari yig'indisi) yoki metodikasini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni hamda[1] 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq shu nomli vazirlik tashkil etilgan bo'lib, uning vazifalari qatoriga ijtimoiyrivojlanishga, shu jumladan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga innovatsiyalarni joriy etish ham kiritilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'limni sifatini ko'tarsa, innovatsion texnologiyalar ta'lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchdir. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

V. MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MAVZULAR

1. An'anaviy va zamonaviy o'qitish metodlarining qiyosiy tahlili
2. B.Blum taksonomiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi
3. Pedagogik maqsadlar taksonomiyasining ahamiyati va amaliy jihatlari
4. Siyosiy ta'limda interaktiv metodlarni qo'llash imkoniyatlari
5. Muammoli o'qitish texnologiyasining mohiyati va samaradorligi
6. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va ularning afzalliklari
7. Case-study (Keys-stadi) metodining siyosatshunoslik fanini o'qitishdagi o'rni
8. Assesment metodi orqali ta'lim natijalarini baholash
9. Induktiv va deduktiv metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rni
10. Siyosiy ta'limda bilish faolligini oshirish usullari
11. Mustaqil ta'limni tashkil etishda innovatsion ta'lim shakllari
12. Modulli-kredit tizimining ta'lim sifatini oshirishdagi roli
13. Masofaviy ta'lim va blended learning (aralash o'qitish) texnologiyalari
14. Ta'lim jarayonida innovatsion axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish
15. Siyosiy ta'limda baholash va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari

VI. GLOSSARIY

№	Atama	Tushuncha (izoh)
1	An'anaviy o'qitish metodlari	O'qituvchi yetakchi rol o'ynaydigan, asosan ma'ruza, tushuntirish va takrorlashga asoslangan o'qitish usullari.
2	Zamonaviy o'qitish metodlari	Ta'lim oluvchi faolligiga tayangan, interaktiv, innovatsion va ijodiy yondashuvlarga asoslangan metodlar.
3	O'qitish metodlari klassifikatsiyasi	O'qitish usullarini mazmun, maqsad va faoliyat turiga ko'ra guruhlash tizimi.
4	Pedagogik maqsadlar taksonomiyasi	Ta'lim maqsadlarini bosqichma-bosqich tizimlashtirish va rejalashtirish usuli.
5	B.Blum taksonomiyasi	Bilish faoliyatini bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlariga ajratuvchi model.
6	Og'zaki metodlar	Ma'ruza, suhbat, savol-javob orqali bilim berish usullari.
7	Vizual metodlar	Rasm, jadval, diagramma, video va prezentatsiyalar orqali o'qitish.
8	Amaliy metodlar	Mashq, laboratoriya ishlari va tajriba orqali bilimni mustahkamlash usullari.
9	Muammoli o'qitish	Ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga undaydigan muammoli vaziyatlar asosida o'qitish usuli.
10	Induktiv metod	Alohida fakt va misollardan umumiy xulosaga kelishga asoslangan metod.
11	Deduktiv metod	Umumiy qoida va nazariyalardan xususiy xulosalar chiqarishga asoslangan metod.
12	Nazorat va baholash usullari	Bilim, ko'nikma va malakalarni og'zaki, yozma va test orqali tekshirish usullari.
13	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim	Ta'lim oluvchining individual xususiyatlari va ehtiyojlariga mos o'qitish texnologiyasi.
14	Interfaol metodlar	Guruhda ishlash, bahs-munozara va hamkorlikka asoslangan faol o'qitish usullari.
15	Case-study (Keys-stadi) metodi	Real yoki modellashtirilgan vaziyatlarni tahlil qilish orqali qaror qabul qilishni o'rgatuvchi metod.

VII.ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 343-sonli Qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi “343-sonli qororiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrda PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrda PQ-3416 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.
3. Avliyoqulov N.X, Musayeva N.N. "Yangi pedagogic texnologiyalar" darslik 15-20b.
4. N.A.Muslimov "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" o'quv- uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.
5. Рахматов, Марат Салимович, Мавлуда Сайфиддиновна Норова, Исмаи Худойкулович Давлатов. "ПРОБЛЕМЫ ПЕРСПЕКТИВНЫХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ ТЕХНИКИ И ТЕХНОЛОГИИ." Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации. 2014
6. "Kimyo va oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda xavfsizligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalar" xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiali Norova M.S.ning "Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning talabalarda innovatsion g'oyalar yaratishga ko'rsatadigan ta'siri." tezisi.
7. Ibragimov, X., and Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." T.: Fan va texnologiya 288 (2008).
8. Ибраимов Х. И. Креативность как одна из характеристик личности будущего педагога
//Наука, образование и культура. – 2018. – №. 3 (27). – С. 44-46.
9. Ibragimovich X. I. O 'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIDA KREDIT-MODUL TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
//INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC- METHODOICAL JOURNAL. – 2021. – С. 209-214.
10. Ibragimovich, Ibraimov Kholboy. "Theoretical and methodological basis of quality control and evaluation of education in higher education system." International journal of discourse on innovation, integration and education 1 (2020): 6-15.
11. Maxmutovna T. X. INFLUENCE OF MASS CULTURE ON THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE SPIRITUAL AND MORAL IMAGE OF THE YOUNG GENERATION //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
12. Mahmutovna T. X. Ways to Form Immunity of Protection from" Public Culture" in Adolescent Students //Kresna Social Science and Humanities Research. –

2022. – Т. 3. – С. 115-117.

13. Makhmutovna T. K., Ibragimovna T. I. Specific features of the pedagogical process focused on increasing the social activity of youth //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 6. – С. 165-171.

14. Abdullaeva, B. S., Sobirova, M. A., Abduganiev, O. T., & Abdullaev, D. N. (2020). The specifics of modern legal education and upbringing of schoolchildren in the countries of the post-soviet world. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2706-2714.

15. Oglu, Abduganiev Ozod Tursunboy. "Pedagogical Conditions And Mechanisms Of Development Of Social Active Civil Competence In Students." Turkish Journal of Computer and Mathematics Education 12, no. 7 (2021): 433-442.

16. Abduganiyev, O. T. (2022, December). FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCE IN STUDENTS. In E

Conference Zone (pp. 10-13).

17. Abduganiev O. Developing Student Civil Competency //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.

18. Махмудов А. Х., Джураев Р. Х., Ахунжонов А. Т. Дидактический потенциал шахматной игры //Наука и образование сегодня. – 2020. – №. 6-2 (53). – С. 70-71.

19. Махмудов А. Х. ИНТЕНСИФИКАЦИЯ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТА «ШАХМАТЫ» ЧЕРЕЗ РЕШЕНИЯ ШАХМАТНЫХ ЗАДАЧ: 10.53885/ед. 2022.49. 38.098 Махмудов

Абдулхалим Хамидович, д. 2 п. н, зам. директора Узбекского научно-исследовательского института педагогических наук им. Кары Ниязи, abdu-hm@yandex.ru //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 766-768.

20. Джураев Р. Х., Махмудов А. Х., Фефелов В. С. Методология формирования учебно- творческого плана для компетентностной подготовки магистров //Педагогические науки. – 2012. – №. 1. – С. 84-90.

21. Mahmudov A. X., Abduraxmonov Z. B. Ta'limda zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanishning yutuqlari va muammolari //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 3. – S. 97-99.